



“YANGI O‘ZBEKISTONDA XALQARO BAG‘RIKENGLIK TAMOYILI”

Tojiboyev Usmonjon Shuxrat o‘g‘li

Qo‘qon davlat universitei Akademik litseyi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi O‘zbekistonda xalqaro bag‘rikenglik tamoyili haqida so‘z yuritilib, bugungi kunda ko‘p millatlik xalqimiz orasida do‘stlik, o‘zaro hurmat tamoyillarini saqlashga va yurt obodligi yo‘lida fidokorona mehnat qilayotganligiga alohida urg‘u berilgan. Yangi O‘zbekistonda bag‘rikenglik masalalarida amalga oshirilayotgan amaliy ishlar haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Xalqaro bag‘rikenglik, milliylik, hamjihatlik, rivojlanish, urf-odat, erkinlik, munosabat, huquqiy asos, madaniyat.

“ПРИНЦИП МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ”

Тоджибоев Усмонжон Шухрат оглы

*Преподаватель Академического лицея Кокандского государственного
университета*

Аннотация. В данной статье говорится о принципе межнациональной толерантности в новом Узбекистане, а особый акцент делается на сохранении принципов дружбы и взаимоуважения среди нашего многонационального народа и самоотверженном труде на благо процветания страны. Были даны мнения о проводимой практической работе по вопросам толерантности в Новом Узбекистане.



Ключевые слова. *Международная толерантность, национальность, солидарность, развитие, традиция, свобода, отношение, правовая основа, культура.*

“THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL TOLERANCE IN THE NEW UZBEKISTAN”

Tojiboyev Usmonjon Shukhrat ogli

Teacher of the Academic Lyceum of Kokand State University

Abstract. *This article talks about the principle of international tolerance in the new Uzbekistan, and special emphasis is placed on maintaining the principles of friendship and mutual respect among our multi-ethnic people and selflessly working for the prosperity of the country. Opinions were given about the practical work being carried out on issues of tolerance in New Uzbekistan.*

Keywords. *International tolerance, nationality, solidarity, development, tradition, freedom, attitude, legal basis, culture.*

KIRISH. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, o'lkamizda madaniyat rivojining uch ming yildan ortiq buyuk tarixi bor. Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonning hozirgi hududida qadim davrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qilgan xalqlar yashab kelgan. O'zbekistonning jug'rofiy-siyosiy nuqtai nazardan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani diniy va madaniy hayotga katta ta'sir ko'rsatgan. O'z navbatida bu yerda yashagan tub aholining madaniyati ham ularga ta'sir o'tkazgan va o'ziga xos turmush tarzini shakllantirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.



Asrlar mobaynida o'lkamizning shaharu qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko'rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o'z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat'iy nazar, insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi tuyg'ular o'lka aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mamlakatimizda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish, millatlar va konfessiyalararo o'zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanadi..."[1]. Shu nuqtai nazardan, yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish mezonlarini, tamoyillarini taxlil qilish mumkin. "Vatanimizni yanada ravnaq toptirish, markazning jahondagi obro'-e'tiborini oshirish maqsadida o'zlarining fidokorona mehnati asosida o'zlarining hissalarini qo'shib kelmoqda"[3]. "Ma'rifat, butun xalqimizning birligi va hamjihatligi hal qiluvchi rol o'ynaydi" deb takidlagan[4]. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi" deb belgilab qo'yilgan[5]. "Turli jinoyatchiliklarni oldini olish, farzand tarbiyasida ota-ona va jamoatchilikning mas'uliyatini yanada oshirish kabi masalalar dolzarb ahamiyatga egaligi takidlangan"[6]. Muayyan yurtida istiqomat qilayotgan millatlar o'z manfaatlarini o'zga millatlar manfaatlaridan ustun qo'yadigan bo'lsa, muvozanat buziladi, tolerantlik tuyg'ulari o'rniga millatlararo nizolar kelib chiqishiga olib keladi[7]. Yoshlarning tolerantlik psixologiyasi rivojlansa, jamiyatda ijtimoiy hamkorlik yuzaga kelishi xam takidlagan[8].



Bagrikenglikka muayyan ehtiyoj va qiziqishlarni qondirishga umumiy zarurat tug‘ilgandagina paydo bo‘ladi va harakatlanadi”[9].

TAHLIL VA NATIJALAR. Mamlakatimizning taraqqiy etishi, avvalambor, undagi barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitining saqlanishiga bog‘liq. Bu masalalarga davlatimiz rahbari turli yig‘ilish va anjumanlarda, shu qatori xalqaro maydonda ham xalqimiz va jahon hamjamiyatining e‘tiborini qaratib kelmoqda.

Birodarlik, diniy bag‘rikenglik, do‘stlik va hamkorlik insoniylik fazilatlaridan biri sifatida ajdodlarimizdan bizlarga juda katta ma’naviy meros bo‘lib qolgan. Barcha milliy madaniy markazlarning samarali faoliyat olib borishi uchun davlat tomonidan har tomonlama ko‘mak berilyapti, turli millat vakillarining o‘z ona tili, madaniyati, san’ati, hunarmandchiligi va milliy qadriyatlarini rivojlantirishiga e‘tibor qaratilyapti.

Yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik, albatta, turli millat vakillarining o‘zaro do‘stlik, birodarlik munosabatlariga asoslangan. Prezidentimiz bu borada «O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an‘analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e‘tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir», deb ta’kidlagan edilar.

BMT Bosh Assambleyasining qaroriga muvofiq, 1997-yildan buyon butun dunyoda har yili 16-noyabr «Xalqaro bag‘rikenglik kuni» sifatida nishonlanib kelinadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 15-noyabrdagi «Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmoni ijrosi doirasida yurtimizda har yili 16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuniga bag‘ishlangan «Bag‘rikenglik haftaligi» tashkil etilib



kelinadi. Bu esa mamlakatimizda istiqomat qiluvchi turli millat va elat vakillari o'rtasida inoqlikni ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda.

Ma'lumki, har bir dinning o'ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba'zan bir-biriga mutanosib bo'lsa, ba'zan bir-biriga zid ham kelishi mumkin. Diniy bag'rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini oladi, turli e'tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo'la olishi uchun xizmat qiladi.

O'lkada tinchlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlashda islom ta'limotidagi o'zga din vakillari bilan o'zaro murosa yo'lini tutish, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish va hamjihatlikda yashashga chorlovchi tamoyillar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, islom ta'limotidagi dinni qabul qilish yoki qabul qilmaslik qalbga bog'liq, insonning to'liq ixtiyoridagi amal deb qaralishi mintaqada diniy bag'rikenglik muhiti barqaror bo'lishi uchun asosiy omillardan bo'ldi.

Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston mamlakati ham ming yillar davomida dinlararo bag'rikenglik o'lkasi sifatida e'tirof etiladi. Haqiqatan ham, o'zbek xalqi o'zining butun tarixi davomida hamma vaqt boshqa xalq, millat va din vakillariga nisbatan o'zining hurmatini namoyon etgan. Bu o'z navbatida yurt tinchligi, taraqqiyoti va umuminsoniy madaniyat rivojiga xizmat qilgan.

Bu esa, yurtimizda yashayotgan barcha din vakillarining o'z diniy e'tiqodlarini emin-erkin amalga oshirishlari va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilayotgan tadbirlar jumlasiga kiradi. Quvonarli jihati shundaki, bu tadbirlar diniy barqarorlik, konfessiyalararo samimiy va do'stona muhitning vujudga kelishi va eng Asosiysi yurtimizdagi tinchlikning barqaror bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Diniy bag'rikenglik har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish, shu bilan birga o'zaro hamkorlik asosida amalga oshadi.



Hozirgi notinch va tahlikali zamonda insoniyat duch kelayotgan murakkab muammolar, xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etishda, turli tahdidlarning oldini olishda qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda, nufuzli xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlarini birlashtirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlarining o'zaro do'stligi qanchalik mustahkam bo'lsa, davlatimiz ham shuncha mustahkam bo'ladi.

Millatlararo totuvlik, o'zaro do'stlik rishtalarini yana-da mustahkamlash haqida 2020-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga navbatdagi murojaatida ham ta'kidlandi. Murojaatnomada 30 iyul – Xalqaro do'stlik kuni munosabati bilan «Do'stlik haftaligi»ni tashkil etish hamda ushbu haftalik doirasida “Do'stlik” xalqaro forum-festivalini o'tkazish taklifi ilgari surildi. Shuningdek, «Xalqlar do'stligi» ko'krak nishonini ta'sis etish haqidagi tashabbus ham qo'llab-quvvatlandi. Bu yil «Xalqlar do'stligi kunini belgilash to'g'risida»gi Qonun kuchga kirdi.

«Xalqlar do'stligi kuni»ni nishonlashdan asosiy maqsad insonlar, xalqlar, davlatlar – umuman olganda jamiyatning turli qatlamlari hamda tuzilmalari o'rtasida hamjihatlik, bag'rikenglik, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va do'stlik aloqalarini yana-da rivojlantirishdan iborat.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, yurtimizda millatlararo va davlatlararo totuvlikni yana-da mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslarning paydo bo'layotganligi do'stlik va hamjihatlik qo'rg'onining yana-da mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Yurtimizda istiqomat qiluvchi millati, dini va etnik kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha fuqarolarga emin erkin yashashlari uchun sharoitlar yaratilgan. Millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglikni ta'minlash bugungi davlat siyosatining ajralmas hamda muhim bo'g'ini hisoblanadi.



Davlatimiz rahbari e'tirof etganidek, «O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz – jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir».

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. “Ислом ҳамжиҳатлиги: Ўзбекистон ва Озарбайжон мисолида” мавзуидаги халқаро конференция иштирокчиларига. – Тошкент шаҳри. 2017 йил. 18 октябрь // Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд. – Т.: Ўзбекистон”, 2018. – Б. 455.

2. Мирзиёев Ш.М. “Ислом ҳамжиҳатлиги: Ўзбекистон ва Озарбайжон мисолида” мавзуидаги халқаро конференция иштирокчиларига. – Тошкент шаҳри. 2017 йил. 18 октябрь // Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд. – Т.: Ўзбекистон”, 2018. – Б. 455.

3. Юсупова Севара Низамитдиновна. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг миллатлараро муносабатларга таъсири. (1991 – 2016 йиллар, Андижон, Наманган ва Фарғона вилоятлари мисолида). тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Андижон – 2019. –Б. 9.

4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б. 149.

5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 11.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 2017 йил 7 февраль.// “Халқ сўзи”, 2017 йил 8 февраль. - Б. 1-2.



7. Borgonovi, F (2012) The relationship between education and levels of trust and tolerance in Europe. *British Journal of Sociology* 63(1): 146–167.
8. Hainmueller, J, Hopkins, DJ (2014) Political attitudes towards immigration. *Annual Review of Political Science* 17: 225–249.
9. Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси. –Тошкент: 2006. - Б. 54.